



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

ALISHER NAVOIY “TANBEH”LARINING G’OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI
(“Mahbub ul-qulub” asari misolida)

Maqsud ASADOV,

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o‘rinbosari,
filologiya fanlari doktori, professor*

e-mail: alpbek2010@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/XMPE4290

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi “Tanbeh”lar badiiyati, xususan, ularning obrazlar tizimi borasida bahs yuritilgan. Inson kamoloti, yetuklik shukhi, qolaversa, ulug‘ shoir ma’naviy olamiga xos go‘zal insoniy fazilatlarining adabiy matn mazmuni bilan bog‘liq jihatlariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: tanbeh, ishq, ma‘rifat, nafs, qalb.

**THE ILLUSTRATIVE-ARTISTIC CHARACTERISTICS OF ALISHER NAVAI'S
"REPRECISIONS" (On the example of the work "Mahbub ul-qulub")**

Abstract. This article examines the literary artistry of the Tanbeh sections within Alisher Navoi's renowned work, Mahbub ul-Qulub, with a particular focus on their system of imagery. Special attention is given to the thematic exploration of human perfection, spiritual maturity, and the noble qualities that define the poet's ethical and philosophical worldview. Through an in-depth literary analysis, the study elucidates how Navoi employs artistic expression to convey moral and intellectual ideals, emphasizing the intricate interplay between form and meaning in his portrayal of human virtues.

Keywords: tanbeh, ishk, enlightenment, temptation, soul.

Qalb, Ruh, Axloq, Ishq, Ma‘rifat, Haqiqat singari tafakkur kengliklarini yoritib, inson ma’naviy olamiga ishonch, qat‘iyat va zavq bag‘ishlovchi nekin tushunchalar Adabiyot atalmish so‘z saltanatining muqaddas mehvarida porloq nur taratib turadi. Shubhasiz, badiiyatning chinakam namunalari – so‘z san‘atining asl durdonalari kitobxonni yuksak kamolot cho‘qqilari sari boshlaydi. Ezgulik, xolislik, odillik, sofdillik kabi ulug‘vor fazilatlarini targ‘ibu tashviq etadi – ularning bitmas-tuganmas estetik quvvatidan ilhomlanadi. Yaxshini yomondan, to‘g‘rini egridan, Haqni botildan farqlay olishni o‘rgatish, chin insoniylik tamoyillariga sabot va qat‘iyat bilan amal qilib yashashga ruhlantirish adabiyotning bosh vazifasidir.

Ijod jarayoni esa o‘z-o‘zini taftish va inkishof etish imkoniyatidan yuzaga keladi. Qalb ko‘zgusida aks etgan haqiqatlar sirini anglash uchun ruhoniyyatning mukoshafa martabasi – fardoniyyatga yuzlanish ham ijodiy muvaffaqiyatlarga keng yo‘l ochadi. Chunki irfoniy adabiyotda “fardoniyyat – solikning vuslatga erishgandan keyin egallaydigan maqomi. Ma’naviy-ruhiy ushbu darajada qalb bashariy chirkinliklardan butkul poklanib, Haq bilan yakkama-yakka qolib tavhid mushohadasiga mashg‘ul bo‘ladi” [Хаққул И: 2014, 94]. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari ana shunday: mushohada holidagi SHAXSIYAT egasining hayotiy kuzatishlari, o‘tkir xulosalaridan yuzaga kelgan o‘ziga xos iqrornomasidir. “Mahbub ul-qulub” Haq oshig‘i – solik, ya’ni yo‘lchining ko‘ngilga safari, ruhoniyyat olamiga sayru sayohatidir. U shaxs va nafs mujodallasiga bag‘ishlangan. Asarda boshdan oxir

qo'nglida hidoyat nuri porlagan beg'ubor Shaxsiyat egasi – Navoiy qiyofasi yorqin gavlaladi. O'quvchi o'zida bu yetuk siymoga yaqinlik, ma'naviy olamiga oshuhtalik his qiladi – uning aytganlariga beixtiyor ergashadi. Inson tabiatiga begona bo'lgan nafs kirdikorlari: kibr, mol-dunyoga harislik, ochko'zlik, xasislik, mahmadonalik, riyokorlik, ikkio'yinchilik, g'iybatu ig'vodan yiroq bo'lishga intiladi. “Tanbeh”lar esa insonga nafsni tanish ilmidan saboq beradi.

“Mahbub ul-qulub”da didaktika, pand-nasihat emas, ayovsiz tanqid, fosh qilish katta o'rin tutadi va yetakchilik qiladi. Demak, turli ijtimoiy tabaqalarning axloqini tasvirlash, ularga xos illatlarni ochib tashlash, shu yo'l bilan jamiyat axloqini yaxshilash, unga ijobiy ta'sir ko'rsatishga intilish asarning asosiy mazmun-mohiyati va g'oyasini tashkil etadi” [Эпрашев К: 2022, 50]. Darhaqiqat, o'zini, o'zligini tanish yo'lida kamolot kasb etgan chin insoniy fazilatlar egasi – nosh, ya'ni nasihat aytuvchining qat'iy va haqqoniy xulosalari yig'indisi bu kitob. Hayotning past-balandini ko'p ko'rgan, turmushning “achig'-chuchu”gini “xo'b” totgan, irodasi mustahkam, imoni butun, fitrati toza, fikrati teran kamolot sohibining o'ktam ovozi “Mahbub ul-qulub”ning, ayniqsa, “Tanbeh”larida yanada yaqqolroq aks-sado beradi. Inson tabiatidagi nuqsonlar ustidan keskin tanqid ruhi, dangal, lo'nda va muxtasar fikr-mulohazalar ularning xos jihatlarini xarakterlaydi.

Asardagi 127 ta tanbehni mazmuni va ifoda yo'siniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Nasihat, o'git ma'nosidagi tanbehlar.
2. Ulug' shoirning hayotiy qarashlari ifodalangan tanbehlar.
3. Xulosa o'quvchiga hukmiga havola etilgan tanbehlar.

Nasihat mazmunidagi tanbehlarda fikr, asosan, ikkinchi shaxsga qaratilib, buyruq ohangi ustunlik qiladi. Masalan: “Nodon do'stni ham do'st soniga kivrma, xirad sham'in aning harza afsonasi yelidin o'churma” [Алишер Навоий: 2024, 518]. Keyingi guruh tanbehleri boshqalaridan hajmi va bayon usuliga ko'ra ham farqlanadi. Jumladan: “...do'stdin dushmani farq etarga ko'p mulohaza kerak va farosat va yorni ag'yordin tanirg'a ko'p tajriba kerak va qiyosat” (32-tanbeh). Uchinchi guruh tanbehlaridagi fikrlar o'zaro qiyoslash, taqqoslash orqali yuzaga chiqib, kitobxonni mushohadaga undaydi: o'zi uchun nima maqbulu nima xato bo'lishini o'ylab ko'rishga, hayotda hamisha to'g'ri yo'l tanlashga rag'batlantiradi: “Yamonlarg'a lutfu karam, yaxshilarg'a mujibi zarar va alam. Mushukka rioyat – kabutarg'a ofatdur. Shag'ol jonibin tutmoq – tovuq tuxmin qurutmoqdur” (36-tanbeh). Tanbehlar kompozitsiyasi ham muayyan ketma-ketlikka ega, ya'ni *matn* – *nazm* tuzilishi aniqlik va tizimlilikni ta'minlagan.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, asarda hajman yirik bo'lgan she'riy janr namunalari emas, balki tanbehlar shakliga mos ravishda muxtasar va ixcham shakldagi bayt, masnaviy va qit'alar keltirilgan. She'rlar tanbeh mazmuni bilan uzviy bog'liq. To'g'ri, ular alohida olinganda ham g'oya, mavzu va lirik ifodaning badiiy qimmatida hech bir saktalik sezilmaydi. Biroq adabiy matnning umumiy manzarasida bir bo'shliq, xulosasida qandaydir kemtiklik ko'zga tashlanaveradi. Masalan, yolg'onchilik qoralangan mana bu tanbeh ma'nosiga diqqat qaratamiz: “Birovkim, yolg'on so'zni birovga bog'lag'ay, o'z qaro bo'lg'on yuzin yog'lag'ay, kabira gunohdur. Oz so'z hamki o'tpukdur zahri muhlikdur – agarchi miqdori o'ksukdur

Bayt:

Zahrning ozi esa miqdori dog'i muhlikdur,

Ignaning no'gi zaif ersa dog'i ko'r qilur" (51-tanbeh).

Misralar tanbeh matni ifoda etgan mazmun bilan o'zaro uyg'unlashib, kompozitsiyaning yaxlitligi va badiiy mukammalligini ta'minlagan. Bayt tushirib qoldirilganda ham tanbehda ilgari surilgan fikrning qimmatini susaymasligi mumkin, ammo uning estetik ta'sir ko'lamini baribir torayadi va Navoiy san'atkorligining yorqin xususiyatlari to'la ochilmay qoladi. Ana shu jihati bilan ham tanbehlar "Mahbub ul-qulub" asaridagi muhim adabiy yangilikdir.

Ma'lumki, badiiy adabiyot obrazlar tilida so'zlaydi. Obraz, aslida, ijodkor va kitobxon o'rtasidagi vosita – ma'naviy ko'priq, "adabiyotning fikrlash shakli" [Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М: 2010, 44]. Uning tabiatini tushunish, ma'nosini anglash, ifoda imkoniyatlariga xolis baho berish so'z san'atkorining Shaxsiyati – ichki ruhiy dunyosiga aniq yo'l topishga ko'mak beradi. Chunki obraz – "ijodkorning hayotiy kuzatishlari asosida shakllan"gan [Хотамов Н., Саримсоқов Б: 1983, 219] nihoyatda murakkab hodisa. U ijodkor his-tuyg'ularining badiiy matn mazmuni bilan sintezlashuvidan hosil bo'ladigan o'ziga xos adabiy kategoriyadir. Tanbehlarda ham ulug' shoirning orzu-istaklari, o'y-qarashlar xilma-xil obrazlar orqali jonli ifodalangan. Shunisi ham borki, tanbehlardagi obrazlarni badiiy matndan alohida uzib olib, tahlilga tortishga urinish ham o'zini oqlayvermaydi. Ular adabiy matn mazmuni va buyuk mutafakkir shoirning ijodiy niyati bilan uzviy tarzda bog'liqdir.

Tanbehlar Alisher Navoiyning boshqa ko'plab asarlarida keltirilgan fano va foniylilik talqiniga oid qarashlariga oydinlik kiritishga yordam beradi. To'g'ri, bu borada navoiyshunoslikda ozmi-ko'pmi fikrlar bildirilgan. Shunga qaramay, ulug' shoir ma'naviy qiyofasiga xos olijanob fazilatlar, xususan, fano maslagi va Navoiy ijodi masalasi hanuzgacha atroflicha yoritilgan emas. Avvalo ulug' mutafakkirning nafs va o'zlik, dunyo va inson, ruh va nafs, nafs va vujud haqiqatlari borasidagi qarashlarini tadqiq qilish zarur. Irfoniy adabiyotda Haq oshig'ining nafi ammoradan nafi komilagacha bo'lgan ruhiy kamolot sirlarini o'rganmay turib, Navoiy ijodiyotidagi fano talqinlari xususida e'tirofqa arziqli muvaffaqiyatlarga erishish qiyin, albatta. «Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati»da fano so'zi «1. Yo'q bo'lish; tugalish, o'lish, baqosizlik. 2. O'zlikni yo'qotib, butun borliqdan kechib, ilohiyotga singish» deb izohlangan [Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати: 1984, 318]. Aslida, bu kalimaning mazmun-mohiyati anchayin keng. Xo'sh, unda «Fano ahli» timsoli-chi? «Fano ahli» – ilohiy ma'rifat asroriga sohib, nafsiga sulton, tamkinu qanoatda yetuklik kasb etgan, bu dunyoning holu kayfiyatini tafakkur mezonida o'lday bilgan beqiyos zotlar. Ularning so'zlari gavhar, suhbatlari xazinadir. «Ahli fano» qoshida huda-behuda so'zamollik va o'zini ko'rsatishga urinishga monand yuzaki bilimdonlik ham yuzsizli-gu bema'nilikdan boshqa bir narsa emas. Navoiy yozadi: «Fano ahlig'a ko'p aytmoq marduddur va ko'p eshitmak matlub va mahmud» (3-tanbeh).

Aytish kerakki, mumtoz adabiyotda fano bu dunyoning barcha lazzatlaridan butkul uzilib, o'zni yashash zavqi, tiriklik shukuhi, hayot go'zalliklaridan mosuvo qilish – jazolash degani emas. Fano – ruhiy hurriyat maqomi, jonni turmushning o'tkinchi va umrni behuda sarf qilishga sabab bo'ladigan keraksiz o'y-xayolllaridan, xohish-istaklaridan yiroq tutadigan, himoya qiladigan ma'naviy qo'rg'on. Fano dunyoparastlikka qarshi haqsevarlik, tushkunligu umidsizlikka qarshi hayotsevarlikni tarbiyalaydigan yo'l boshchidir. Navoiy tanbehlarida fano holidagi komil shaxsning ruhan uyg'oq va jo'shqin timsoli aks etgan. U bu dunyoni emas, balki dunyo hayotini zulmatga aylantiradigan qabihliklarni, ijtimoiy tengsizlik, ma'naviy qadriyatlardan

mahrum moddiyunchilikni quvvatlaydigan razolatu adolatsizlikni qoralaydi. Insonni turfa noqisligu kemtikliklardan xoli, mukammal va baxtli ko'rishni istaydi. Shu bois kitobxonni olam ajoyibotlari, tiriklikning har lahzasini qadrlashga, g'animat bilishga undaydi. Jumladan: «Besh kun bu dori fano tirikligiga masrur va davlatig'a mag'rur bo'lmoq kerakdur» (107-tanbeh).

«Mahbub ul-qulub»ni ichdan nurlantirib turgan ma'rifiy asos bu Qur'oni karim, Hadisi sharif va Sharq mumtoz adabiyoti durdonalaridir. Qudsiy hadisda aytilishicha, «Kimki o'z nafsini tanigan bo'lsa, muhaqqaq, u o'z Rabbini taniydi». Nafsni bilish, uni tarbiya qilish o'ta darajada murakkab va mashaqqatli ishdir. Mumtoz adabiyotda ko'pincha yomon xulqlar, tuban odatlar nafs so'zi bilan umumlashtiriladi. Nafsoniy istaklar, shubhasiz, shayton amallaridir. Inson va shayton ixtilofining tarixi ham ancha qadimiy. Qur'oni karimdagi: «Bir-biringizga nisbatan dushman bo'lgan holingizda (jannatdan) tushingiz!» (A'rof:23) oyati bunga yorqin misol bo'la oladi. «Odam bila shayton muxolifatin unutma. Ota dushmanin o'zungga do'st tutma. Otangni behishtdek ma'manidin jalo qildi va yillar xokdon g'aribistonida zalil va muftalo qildi. Va otang avlodidin ba'zi anga intiqom tuzdilar va xoru zabun qilib jafolar ko'rguzdilar. Nafsni chun taqvo riyozati bila zerdast qildilar – shaytonni zalilliq bila yerga past qildilar. Sizning bu adovatingiz hargiz adam bo'lmas. Bu dushmanliq arongizdin hargiz kam bo'lmas. Bu g'olib dushmandin bir dam g'ofil qolma, o'churolmas isyon o'tin o'z xirmaningga olma» (116-tanbeh), - deb yozadi Navoiy.

Tanbehlarda ikki toifa: bir-biridan fe'l-atvori, maqsadu maslagiga ko'ra farqlanadigan timsollar tizimi yaqqol ajralib turadi: 1. Yaxshi, oqil, odil, haqgo'y, olim kabi "saodatmand" kishilar obrazlari. 2. Xudpisand, noxiradmand, xud oro, mutakabbir, shahvatparast, xudparast, shayton, noqis, nodon, behayo, behayo, bevafo, dushman, fosiq, baxil, badnafs, yolg'onchi, nammom, ko'p deguvchi, mukarrar deguvchi, g'iybat deguvchi, bangi, zamon ahli, bashar ahli, zolim, bedard, nopok singari nafsoniy istagu xohishlarga asir bo'lgan – "nojins"lar toifasi. "Saodatmand agar olim bo'lsa, nodonlar so'zi anga mujibi ibrat va e'tibor, – deydi Navoiy, – besaodat johil bo'lsa, olim so'zidin anga or". Saodatmand kim? Olamga ibrat va hikmat nazari bila boquvchi odam! Nodon-chi? Faqat ilmu ma'rifatdan yiroq bir kimsa emas, balki insoniylik fazilatlariga butkul begona bo'lgan barcha yaramasliklar, noqisliklar ramzi. Tanbehlarda u ham nafsning turli ko'rinishlari va kayfiyatini ifoda etadi.

Nafsning tabiati «men», ya'ni «o'z»dan iborat. «O'z»idan boshqani tan olmaslik – xudparastlik nafsning ana shu xususiyatidan yuzaga keladi. Sharq mumtoz adabiyotida komil inson nazariyasi asoschisi Aziziddin Nasafiya ko'ra, «nafsni sevish eng muhtasham butdir. O'zga butlar uning vositasida paydo bo'ladi va qolgan barchasini ugina yakson aylay oladi». Tanbehlarda xudparast – o'ziga bino qo'ygan, kibru manmanlik, dimog'dorlik bilan atrofdagilarni nazar-pisand qilmaydigan, takabbur va olifta kishilar obrazi. «Xudparast – butparast» (3-tanbeh), – deydi Navoiy. Boshqa bir tanbehda xudpisand haqida so'z borgan: «xudpisandki, ne qilg'oni o'ziga xo'bdur, bu nopisand fe'lg'a tafovut ko'pdur» (5-tanbeh). Tanbehlardagi assotsiativ tasvir – birgina tushuncha orqali keng manzarani tasavvur qilish yoki muayyan obraz vositasida fikrni to'la ochib berish poetik usuli ulug' shoirning maqsad-muddaosini to'laroq anglatishga ko'mak beradi. Chunki xudrarastu xudpisandlar Navoiy yashagan davr, ijtimoiy muhit uchun ham begona bo'lmagan. Tanbehlarda xudparastlarning ikki toifasiga alohida e'tibor qaratilgan:

1. O'zida neki qusurlar, yomon odatlar bor – barchasi yaxshi bo'lib ko'rinadi, boshqalarga nimaiki yoqmasa yoki ma'qul kelmasa, unga yoqimli tuyulaveradi («Avvalgi qism uldurkim, o'zining ahvoli va af'oli va ashkoli har nekim bor, o'ziga xo'b ko'rungay, agarchi elga mardud bo'lg'ay, anga mahbub va marg'ub ko'rungay»).

2. Qanday yumush bilan shug'ullanmasin, nima ish qilmasin, hech narsani o'xshata olmasa ham, o'zini hamisha hammadan bir bosh ustun va ortiq sanaydi. Kamchiligu nuqsoni fazilat bo'lib ko'rinadi. Yetuklikda o'zini Yusuf alayhissalomga tenglashtiradi. Dardu kayfiyatdan begona, g'aliz ohangda bastalagan kuylarini musiqa ilmida mashhur Yusuf Andijoniydan, badiiyatu mazmundan yiroq she'rlarini Salmon Sovajiy qasidalaridan ustun qo'yadi. Ma'nisiz asarlarini Sharqda Jorulloh – Ollohning qo'shnisi nomi bilan mashhur bo'lgan Zamaxshariyning «Kashshof» asari darajasida deb o'ylaydi («Ikkinchi qism uldurki, jami'i holoti noxush xayoloti o'ziga pisandida va raboyanda, mustahsan va xush oyanda ko'rungay. Va ul qaboyihni yaxshi deb o'kungay. Karih zot o'zin Yusufi Kan'oniy degay. Va «ankar-al-asvot» unin Yusufi Andigoni alhoni, Nomavzun abyotin Salmoning «masnu» qasidasidin yaxshiroq bilgay va bema'ni hazayonin Jorulloh bitgan «Kashshof» gumon qilg'ay»).

Tanbehlarda timsollarning axloqiy qiyofasi obrazli tafakkur imkoniyatlaridan keng istifoda etilib, nihoyatda hayotiy va haqqoniy yoritilgan. Sa'j badiiy usuli orqali yuzaga chiqayotgan ohangdoshlik kinoya va mubolag'a badiiy unsurlari yordamida adabiy matnning ta'sirchanligi, qiziqarliligini yanada oshirgan. Fikr tadriji, obrazlararo muvofiqlik, so'zlar va ritmning uzviy bog'liqlikda bir-birini qo'llab kelishi tanbehlarning poetik mukammaligini ham ta'minlagan. Jumladan, 3-tanbehda «xudpisand», «xud oro», «mustag'niy», «mutakabbir», «shahvatparast», «xudparast» obrazlari keltirilib, tashbeh badiiy san'ati orqali fikr nihoyatda jonli ifodalangan: «Xudpisand – noxiradmand. Xud oro – shohidi ra'no. Mustag'niy (beniyozi, ehtiyojsiz. – M.A.) – mag'bun (qahr-g'azabga loyiq. – M.A.), mutakabbir – mal'un. Shahvatparast – nafsg'a zerdast. Xudparast – butparast». Matnda tashbehga asos bo'lgan so'zlar qo'llanmasa, obrazlarning mohiyati yetarli darajada ochilmay qolar edi. Shu sababli ulug' shoir har bir timsolning mazmuniga mos ravishda turli o'xshatishlar tanlagan. Qolaversa, tanbeh matnidagi obrazlarning barchasini nafs tushunchasi o'zaro chambarchas bog'lab turibdi. Navoiyning yozishicha, bu kabi illatlar inson tabiatidagi xastaliklardir. Tanbeh xulosasida ularning davosi nima bo'lishi xususida ham ko'rsatma mavjud: «Bu balolardin nafsni fano qutqarur, muhlika (falokat. – M.A.)lardin najot sori boshqarur».

Ko'rinadiki, «Mahbub ul-qulub» asaridagi «tanbeh»larni atroflicha tadqiq etish buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy dunyoqarashining o'ziga xos jihatlarini chuqurroq bilishga, qolaversa, adabiy matn mazmuni va badiiy obraz tabiatidagi o'zaro mushtarakliklarni haqqoniy tarzda ochib berishga zamin yaratadi. Ulug' so'z san'atkorining boshqa asarlarida qo'llangan bir qator: fano, foni, faqir, baqo, nafs, dunyo kabi tushuncha va timsollar mohiyatini teranroq tushunishga, mumtoz adabiyotning asl maslagini tafakkur qilishga yordam beradi. Adabiyotshunoslikda XV asrning ikkinchi yarmi, xususan, Navoiy yashagan davr, zamon va ijtimoiy muhit borasida bildirilgan fikr-qarashlarga yanada aniqlik kiritadi va ulug' shoir shaxsiyati bilan kitobxonni yaqindan tanishtirishga imkon ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 9-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. – 832 б.

2. Ҳаққул И. Шахсият ва шеърят. – Тошкент: ТДПУ, 2014. – 132 б.
3. Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Тошкент, 2022. – 254 б.
4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 348 б.
5. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 412 б.
6. Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. 3-жилд. – Т.: Фан, 1984. – 748 б.

ALİ ŞİR NEVAÎ BEYİTLERİNDE KULLUK ŞUURU

Dr. Kemal Yavuz Ataman

Sosyal Siyaset Doktoru, Danışment Danışmanlık Ltd. (Türkiye)

kemal.ataman59@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/LIQI8986

Özet. *Ali Şir Nevaî sanatı, eserleri ve üstün vasıflarıyla edebiyat, içtimaiyat, kültür ve tasavvuf tarihinde müstesna bir yere sahiptir. Kuran, Hadis, fıkıh, kelam, tasavvuf, tarih, edebiyat, ilimlerine vakıf olan Nevaî'nin ilmî ve irfanî müktesabatı eserlerine, şiirlerine aksetmiştir. Beyitleri hikmet, esrar, irfan, iksir yüklenmiş hazinelerdir. Kendisine tevdi edilen devlet vazifelerinde ve içtimai hizmetlerde samimiyet ve adaletle çalışmış, muvaffak olmuştur. Güzel ahlakı, hayratı, hasenatı ile takdir edilmiş, sanatkarlara hamilik yapmış, fakirlere, muhtaçlara yardım etmiştir. Hayat felsefesi ve tarzı halka numune olmuş, kâmil bir insan olarak edebi mirasının yanında, irfani miras bırakmıştır. Maziden ibret almış, zamanını en iyi şekilde değerlendirmeye çalışmış, bilgisiyle, tecrübesiyle istikbale ışık tutmuştur. Nevaî'nin Allah (c.c.)'a kul, Resul'üne ümmet olma imanına sahip, kuvvetli, sıhhatli ve sağlam bir "kulluk şuuru"na haiz, dünyanın, ahiretin, kainatın, hilkatin hakikatine vakıf olduğu görülmektedir. O'nun en mühim ve en asli vasfı budur. Hâlık'a "kul/abd" olmak insanın en mühim vazifesidir. Bu çalışmada Nevaî'nin "kulluk şuuru"na, vukufiyetine işaret eden bazı beyitleri üzerinde durulacaktır.*

Anahtar Kelimeler: *Kulluk Şuuru, İman, Amel, Hilkat, Dünya, Ahiret, Kâinat*

SERVITUDE AWARENESS IN ALISHER NAVOI'S COUPLETS

Abstract. *This article examines Alisher Navoi's exceptional role in the history of literature, society, culture, and Sufism, emphasizing his artistic mastery, intellectual contributions, and ethical virtues. Profoundly knowledgeable in the sciences of the Quran, Hadith, Islamic jurisprudence (fiqh), theology (kalam), Sufism, history, and literature, Navoi infused his scholarly and spiritual heritage into his works and poetry. His couplets, rich in wisdom, metaphysical depth, and transformative insight, serve as repositories of enlightenment and esoteric knowledge.*

In addition to his literary achievements, Navoi demonstrated sincerity and integrity in his state duties and social endeavors, attaining remarkable success. Renowned for his virtuous character, benevolence, and philanthropy, he acted as a patron of the arts while providing support to the impoverished and marginalized. His philosophy and way of life became an exemplary model, leaving behind not only a literary legacy but also a spiritual inheritance as a paragon of moral excellence.

Drawing lessons from history, Navoi sought to utilize his time effectively, illuminating the future with his knowledge and experience. His unwavering sense of "servitude awareness" (ubudiyyah), deeply rooted in his faith as a devoted servant of Allah (c.c.) and a member of the Ummah of the Prophet Muhammad (PBUH), shaped his worldview. He possessed a profound

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmiş iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimai xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622